LOYIHALAR VA XARIDLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH MARKAZI

2026-yil 19 noyabr №01-15/1-6010 100000, Toshkent, Niyozbek yo'li ko'chasi, 1-uy

"Biznesni rivojlantiriş banki" ATB

Texnik topşiriqning iş hajmlari va ularning narx parametrlari qismida takroriy ötkazilgan kompleks ekspertiza natijalari böyiça

XULOSA

Loyiha nomi	"Toşkent şahar, Şayxontohur tumani, Beruniy köçasi, 2a-uyda joylaşgan "Biznesni rivojlantiriş banki" ATB Boş ofisi binosini mukammal tamirlaş 2 bosqiç işlari" (Korrektura)
Buyurtmaçi arizasining raqami va sanasi	2026-yil 17-noyabrdagi №17-07/17053-sonli murojaat (Markaz veb-saytidagi 67096-sonli ariza)
Buyurtmaçi	"Biznesni rivojlantiriş banki" ATB
Loyihani amalga oşiriş uçun asos	Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-dekabrdagi 888-son qarori
Moliyalaştiriş manbai	Buyurtmaçining öz mablağlari hisobidan
Loyiha hujjatlari böyiça ekspert xulosasi	"Şaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qiliş Respublika markazi" DM Toşkent viloyati boşqarmasining 2026-yil 3-sentyabrdagi 293582-sonli yiğma ekspert xulosasi.
Obyektning boşlanğiç (çegaraviy) narxi	279 714 167 848 söm QQS bilan, 249 744 792 721 söm QQSsiz
Ekspertiza ötkaziş uçun asos	Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-yanvardagi PQ-3464-sonli va 2022-yil 25-iyuldagi PQ-332-sonli qarorlari.

"Loyihalar va xaridlar samaradorligini oşiriş markazi" DM (*keyingi örinlarda - Markaz*) Sizning "Toşkent şahar, Şayxontohur tumani, Beruniy köçasi, 2a-uyda joylaşgan "Biznesni rivojlantiriş banki" ATB Boş ofisi binosini mukammal tamirlaş 2 bosqiç işlari" (Korrektura)" obyekti böyiça davlat xaridiga doir texnik topşiriqni ekspertizadan ötkaziş töğrisida yöllangan 2026-yil 17-noyabrdagi №17-07/17053-sonli murojaat (Markaz veb-saytidagi 67096-sonli ariza) yuzasidan quyidagilarni ma'lum qiladi.

Taqdim etilgan hujjatlarga köra, mazkur davlat xaridini Buyurtmaçi tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-dekabrdagi 888-son qaroriga muvofiq eng yaxşi takliflarni tanlaş tartib-taomili orqali amalga oşiriş nazarda tutilgan.

Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi PQ-332-son qarori bilan tasdiqlangan "Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyihaoldi hujjatlarini işlab çiqiş, kompleks ekspertizadan ötkaziş va tasdiqlaş tartibi töğrisida"gi Nizom talablariga muvofiq, korporativ buyurtmaçilar tomonidan amalga oşiriladigan qiymati 15 million AQŞ dollari ekvivalentiga teng va undan yuqori bölgan infratuzilmaviy loyihalar böyiça loyihaoldi hujjatlari (TIHK) işlab çiqilişi, kompleks ekspertizadan ötkazilişi va belgilangan tartibda tasdiqlanişi lozim.

Bundan taşqari, Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-fevraldagi PQ-3527-son qarorida texnik-iqtisodiy asoslari va texnik-iqtisodiy hisob-kitoblari işlab çiqilmagan loyihalarni moliyalaştiriş taqiqlanganligi belgilangan.

Yuqoridagilarni hamda Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 15-oktabrdagi 05/26-87-sonli topşiriğini inobatga olib, Buyurtmaçi tomonidan qisqa muddatlarda loyiha böyiça texnik-iqtisodiy asos işlab çiqilişi, Markazga kompleks ekspertizadan ötkaziş uçun taqdim etilişi hamda belgilangan tartibda tasdiqlaş uçun Vazirlar Mahkamasiga kiritilişi lozim.

Şu bilan birga, taqdim etilgan texnik topşiriq ekspertizasi natijalariga köra, unga nisbatan e'tirozlar mavjud emasligini hamda yuqorida keltirilgan izohlarni inobatga olgan holda davlat xaridlarini belgilangan tartibda amalga oşiriş mumkinligini ma'lum qilamiz.

Bundan taşqari, Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-iyundagi 261-sonli "Markazlaştirilgan kapital qöyilmalar hisobidan amalga oşiriladigan investitsiya loyihalarini amalga oşirişda şartnomaviy joriy narxlarga ötiş töğrisida"gi qarori 1-ilovasining 4-bandiga muvofiq, Buyurtmaçi tomonidan aniqlangan boşlanğiç qiymat tanlov savdolari (tenderlar)ni ötkazişda möljal hisoblanadi hamda pudrat şartnomasini (kontraktni) tuziş uçun asos bölib xizmat qilmaydi. Obyektning şartnoma qiymati ötkazilgan tanlov savdolari (tenderlar) natijalariga köra aniqlanadi.

Öz navbatida, “Toşkent şahar, Şayxontohur tumani, Beruniy köçasi, 2a-uyda joylaşgan “Biznesni rivojlantiriş banki” ATB Boş ofisi binosini mukammal ta’mirlaş 2-bosqiç işlari” (korrektura) obyekti böyiça Buyurtmaçi haqqoniylik, ratsionallik va iqtisod tamoyillariga rioya etiş, moliyaviy mablağlardan samarali foydalaniş, şuningdek, Özbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari töğrisida”gi Qonunida nazarda tutilgan davlat xaridlarini amalga oşirişda şaffoflikni ta’minlaş va korrupsiyaga yöl qöymaslik uçun javobgardir.

Direktor **N. Şaripov**